

O.O. YULDASHEVA

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI
KLASTER TA'LIM SHAROITIDA DISKURS
(OG'ZAKI NUTQ) KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YULDASHEVA OMILA ODILOVNA

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI
KLASTER TA'LIM SHAROITIDA DISKURS
(OG'ZAKI NUTQ) KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

MONOGRAFIYA

«Book trade 2022»
TOSHKENT – 2024

UO‘K 811.111;808.5
КБК 81.2 Ингл;81-4
У-67

Yuldasheva O.O.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini klaster ta’lim sharoitida diskurs (og‘zaki nutq) kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish metodikasi. Monografiyasi. – T.: “Book trade 2022”, 2025. – 114 b.

Taqrizchilar:

M.A.Yusupova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Lingvistika va ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.f.d
(Phd), dotsent.

H.F.Maksudova – O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti, p.f.f.d
(Phd), dotsent.

Ushbu monografiyada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining diskurs kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar va texnologiyalarni aniqlashga e’tibor qaratiladi. Shu jumladan, rolli o‘yinlar, debatlar, taqlidiy vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Bu usullar talabalarda tinglab-tushunish va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifoda etish, muammoni tahlil qilish va muloqotni samarali yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Ushbu monografiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining diskurs kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar va texnologiyalarni aniqlashga e’tibor qaratadi.

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 27 noyabrdagi 6-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9026-1-1

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. KLASTER TA’LIM SHAROITIDA DISKURS (OG‘ZAKI NUTQ) KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. “Diskurs kompetensiya” tushunchasi va uning tuzilishi	7
1.2.. Klaster ta’limning ilmiy-nazariy asoslari (Xorijiy, MDH, O‘zbek olimlari).....	18
1.3. Chet tilini klasterli yondashuvlar asosida o‘qitishda xorijiy davlatlar tajribasi hamda mamlakatimizdagi olib borilayotgan chora-tadbirlar	28
II BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KLASTER TA’LIM SHAROITINI JORIY QILISHNING UMUMIY METODIK JIHLATLARI.....	43
2.1. Ta’lim va fan integratsiyasi tizimida ingliz tilini klaster yondashuvi asosida o‘qitish	43
2.2. O‘quvchilarning diskurs (og‘zaki nutq) ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi	57
2.3. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klaster yondashuviga asoslangan modulli tizimi	75
XULOSA	101
ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	103

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizning turli sohalarida izchil islohotlar olib borilmoqda, ushbu islohotlar natijasida ta'lim tizimining barcha sohalarida katta loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi nufuzli oliygohlar bilan xorijiy davlatlar o'rtasida hamkorlik shartnomalari tuzilmoqda va ushbu shartnomalar bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar O'zbekistonni yaqin kelajakda jahon miqyosida barcha sohalarida eng yuqori ko'rsatkichlarga erishishiga olib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ushbu islohotlarning har biri zamirida o'quvchi va talaba yoshlarning manfaatlari, qiziqishlari hamda orzulari mujassam.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish"¹ vazifalari belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda pedagogika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy til fani o'qituvchilarini tayyorlashda xorijiy tilni bilish bilan bir qatorda yetuk, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda kasbiy ta'lim sifatini oshirish zaruratiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Mamlakatimizda chet tili, shu jumladan, ingliz tilini o'qitishga qaratilayotgan yuksak e'tibor va ingliz tilini o'rganuvchilariga berilayotgan keng imkoniyatlar kundan-kunga ortib bormoqda. Mutaxassislarining kasbiy darajasini oshirishning maqsadlaridan biri chet tilini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

professional muloqot vositasi sifatida bilishdir. Ayniqsa kasbiy muloqotni yanada rivojlantirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Kasbiy muloqot jarayonida mutaxassisning asosiy faoliyati hujjatlar bilan ishlash, shaxslararo muloqotni o'tkazish va omma oldida nutq so'zlash qobiliyatidir. Shaxslararo munosabatlarda, ma'lumot almashishda, qarorlar qabul qilish jarayonida, shuningdek, bo'ysunuvchilar faoliyatini boshqarish, rejalash-tirish, rag'batlantirish va ularning ishini nazorat qilishda samarali bo'lish uchun mutaxassisga uning kasbiy malakasi darajasini belgilaydigan aloqa va boshqaruv qobiliyatlari kerak bo'ladi. Zamonaviy aloqa nuqtai nazaridan, muloqotda asosiy narsa - aloqa sheriklarining kommunikativ maqsadlarini ifodalash va ularga erishishdir. Shuning uchun klaster ta'lim sharoitida diskursiv (og'zaki nutq) kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va ularni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diskursiv kompetensiya va klaster usulini o'rganish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda diskurs (og'zaki nutq) kompetensiyani rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalangan holda klaster sharoitini yaratishga zaruriyat bor. Bunda diskurs (og'zaki nutq) kompetensiyani rivojlantirishda klaster ta'limiga yondashgan holatda xorijiy tajribalarni o'rganish va chet tilini puxta o'zlashtirgan soha mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak ingliz tilini o'qituvchilarini klaster ta'lim sharoitida ularning diskursiv (og'zaki nutq) kompetensiyasini metod va

texnologiyalardan foydalanib rivojlantirish, klasterli yondashuv asosida o'qitish texnolo-giyasini ishlab chiqish.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini klaster ta'lim sharoitida diskurs kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalardan iborat.

I BOB. KLASTER TA'LIM SHAROITIDA DISKURS (OG'ZAKI NUTQ) KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. "Diskurs kompetensiya" tushunchasi va uning tuzilishi.

Jahonda turli mamlakatlar o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar, madaniy-ma'rifiy aloqalar, savdo-sotiq ishlari ko'lami ingliz tilini o'rga-nishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Jumladan, AQSh, Rossiya Federasiyasi, Yaponiya, Koreya, Angliya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda turli soha mutaxassislarining xorijiy tillarda o'z kasbiy sohalarida erkin muloqot yurita olishlariga alohida e'tibor berilgan. Yevropada xorijiy tillarni o'qitishni kasbiy kompetensiyalar orqali rivojlantirish va o'quv dasturlari bilan uyg'unlikni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra ta'lim yo'nalishlariga mos holda chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishni modernizatsiyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs kompetensiya – bu tilni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri ishlatish, balki muloqotda situatsiyani hisobga olib, ijtimoiy va madaniy me'yorlarga mos ravishda ifoda qilish ko'nikmasidir. U oddiy nutqiy qobiliyatlardan ko'ra murakkabroq bo'lib, muloqotda mavjud sharoitga mos keladigan tildan foydalanish, nutq mavzusi va kontekstiga ko'ra mos so'zlarni tanlash, nutq oqimini to'g'ri boshqarishni o'z ichiga oladi.